



PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN THE SAMARKAND REGION

Azamat Jomurodovich Eralov

*Associate Professor at Karshi State Technical University
Karshi, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Samarkand region, tourism prospects, pilgrimage tourism, ethno-tourism, gastronomic tourism, ecological tourism, agro-tourism, cultural heritage, tourism infrastructure, investment, international cooperation.

Received: 16.05.26

Accepted: 17.05.26

Published: 18.05.26

Abstract: This scientific article analyzes the prospects for tourism development in the Samarkand region. It explores the region's rich historical and cultural heritage, architectural monuments, natural landscapes, and opportunities provided by tourism infrastructure. Special attention is given to the potential of pilgrimage, ethno- and gastronomic tourism, as well as ecological and agro-tourism. The study highlights the role of government policies, investment programs, and international cooperation in promoting tourism. Furthermore, the article provides a scientific evaluation of the future development of tourism in Samarkand, its economic benefits, and its impact on the region's social life.

SAMARQAND VILOYATI TURIZMNING RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Azamat Jomurodovich Eralov

*Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti
Qarshi, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Samarqand viloyati, turizm istiqbollari, ziyorat turizmi, etno-turizm, gastronomik turizm, ekologik turizm, agroturizm, madaniy meros, turizm infratuzilmasi, investitsiya, xalqaro hamkorlik.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Samarqand viloyatida turizm sohasini rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan. Unda viloyatning boy tarixiy-madaniy merosi, me'moriy yodgorliklari, tabiiy landshaftlari va turizmni qo'llab-quvvatlaydigan infratuzilma imkoniyatlari o'rganiladi. Shuningdek, ziyorat turizmi, etno va gastronomik turizm, ekologik hamda agroturizm yo'nalishlarini rivojlantirish uchun mavjud sharoitlar yoritilgan. Turizmni yanada kengaytirish maqsadida davlat siyosati,

investitsion dasturlar va xalqaro hamkorlikning o'zni alohida ta'kidlangan. Maqolada Samarqand viloyatida turizmni kelajakda rivojlantirish istiqbollari, iqtisodiy samaradorligi va mintaqaning ijtimoiy hayotiga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilingan.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Азамат Жомуродович Эралов

Доцент Каршинский государственный технический университет

Каршии, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Самаркандская область, перспективы туризма, паломнический туризм, этнотуризм, гастрономический туризм, экологический туризм, агротуризм, культурное наследие, туристическая инфраструктура, инвестиции, международное сотрудничество.

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются перспективы развития туризма в Самаркандской области. Анализируется богатое историко-культурное наследие региона, архитектурные памятники, природные ландшафты и возможности, создаваемые туристической инфраструктурой. Особое внимание уделяется развитию направлений паломнического, этнографического, гастрономического, экологического и агротуризма. Отмечается роль государственной политики, инвестиционных программ и международного сотрудничества в продвижении туризма. В статье даётся научная оценка будущего развития туризма в Самаркандской области, его экономической эффективности и влияния на социальную жизнь региона.

Kirish. Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyotining turli yo'nalishlari qatorida xizmatlar sohasi, xususan turizm sohasiga alohida e'tibor qaratildi. So'nggi davrda mamlakatimizda turizm xizmatlari sifatini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, sohaning huquqiy asoslarini takomillashtirish, turizm bilan shug'ullanuvchi tadbirkor va tashkilotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, turistik xizmatlar eksporti hajmini kengaytirish yo'nalishida muayyan natijalarga erishildi. Shu bilan birga, turizmni aholining farovonligini yuksaltirish va mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirishga qaratilgan bosqichma-bosqich kompleks choralar amalga oshirilmoqda.

Mazkur chora-tadbirlarning samarali ijrosi turizmni iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biriga aylantirish, tashrif buyuruvchilar oqimini kengaytirish va ayniqsa, “ziyosat turizmi”ning salohiyatidan samarali foydalanishni talab etadi. Shu bois, mazkur turizm yo‘nalishida mavjud resurslardan oqilona foydalanish, destinatsiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirish, hamda mazkur sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi nazariy-amaliy tadqiqotlarni chuqurlashtirish zarur bo‘lib qolmoqda.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili. Mazkur masala yuzasidan X.Soatov, Y.Ahmadaliyev, O.Ismoilov, A.Berdiyev, S.Ruziyevlar o‘z tadqiqotlarida turizm bilan bog‘liq ayrim ma‘lumotlar keltirishgan.

Muhokama va natijalar. Samarqand shahri qadimiy tarixiy merosi, tabiiy muhitining o‘ziga xosligi va dunyoga mashhur me‘moriy obidalari bilan jahon miqyosida e‘tirof etilgan markazlardan biridir. Mazkur shahar “The Huffington Post” xalqaro nashri tomonidan inson umrida albatta borib ko‘rishga arziydigan dunyoning 50 ta shaharidan biri sifatida e‘tirof etilgani ham uning turistik salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Bu esa xorijiy sayyohlar oqimini kengaytirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekistonning turizm imkoniyatlari ko‘plab rivojlangan mamlakatlar darajasidan kam emas. Respublikamiz hududida turistik qiziqish uyg‘otuvchi ko‘plab obyektlar mavjud bo‘lib, ular nafaqat tarixiy shaharlar – Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va Toshkent bilan chegaralanadi. Shu bilan birga, mamlakatning turli hududlarida ekologik turizm, agroturizm, ziyosat turizmi, gastronomik turizm va boshqa zamonaviy yo‘nalishlarni rivojlantirish uchun ham yetarli sharoitlar mavjuddir.

Mashhur arab sayyohi Ibn Battuta o‘zining “Rihla” (“Sayohatnoma”) asarida Samarqand shahrini ulug‘lab, uni havosi sof, osmoni musaffo, yeri yam-yashil, suvlari tiniq, aholisi esa mehmondo‘st va xorijdan kelgan sayyohlarga do‘stona munosabatda bo‘ladigan jannatmonand maskan sifatida ta‘riflagan [1]. Ushbu yuksak baho Samarqandning qadimdan xalqaro turizm xaritasida alohida o‘rin egallaganini ko‘rsatadi.

Tarixiy manbalarda qayd etilganidek, Samarqandning betakror obidalari va madaniy merosi Yevropa xalqlarida hamisha qiziqish uyg‘otib kelgan. Mustaqillik yillarida esa ushbu qiziqish yanada kuchayib, viloyatga tashrif buyurayotgan xorijiy turistlar soni sezilarli darajada ortdi. Bu esa Samarqandning nafaqat milliy, balki jahon miqyosidagi turistik markaz sifatidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) yubiley sessiyasi ochilishida Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqandga “Jahon madaniyati poytaxti”

maqomini berish tashabbusini ilgari surdi hamda xalqaro delegatsiyalarni ushbu yo‘nalishda qabul qilinadigan deklaratsiyani qo‘llab-quvvatlashga chaqirdi [2].

Sessiyaning qadimiy Samarqand shahrida, ya‘ni Buyuk Ipak yo‘lining durdonasi hamda Yangi O‘zbekistonning yirik turistik markazida o‘tkazilgani chuqur ramziy mazmunga ega ekanligi alohida ta‘kidlandi. Tarixda ikki buyuk Sharq Uyg‘onish davrining shakllanishi va rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan Samarqand bugungi kunda ham jahon miqyosidagi zamonaviy turizm markazlaridan biriga aylanib bormoqda.

Davlat rahbarining fikricha, Samarqandni “Jahon madaniy turizm poytaxti” sifatida e‘tirof etish va bu borada deklaratsiya qabul qilish, shaharni asrlar davomida o‘zining bebaho madaniy merosini asrab-avaylab kelayotgan, bag‘rikenglik va mehmondo‘stlik an‘analari bilan tanilgan maskan sifatida jahon miqyosida yanada nufuzli o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, Samarqand shahriga faxriy maqomning taqdim etilishi xalqaro jamoatchilik tomonidan ushbu qadimiy maskanning muhim madaniy va turistik markaz sifatidagi o‘rni tan olinganidan dalolat beradi. Bu holat nafaqat tarixiy merosga, balki zamonaviy turizm rivojiga ham alohida e‘tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, ma‘lumotlarga ko‘ra, shaharda turizm infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish uchun bir milliard AQSh dollaridan ortiq mablag‘ yo‘naltirilgan. Ushbu investitsiyalarning eng yirik tashabbuslaridan biri sifatida «Silk Road Samarkand» xalqaro turizm majmuasi bunyod etilgan bo‘lib, u keng ko‘lamli xalqaro tadbirlarni yuqori darajada o‘tkazish imkonini bermoqda.

Samarqand viloyati turizm va sport bosh boshqarmasi rahbari D. Narziqulovning ma‘lumotlariga ko‘ra, 2019–2021-yillar davomida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kredit liniyasi asosida hududda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Jumladan, 74 ta loyiha doirasida umumiy qiymati 1311,8 milliard so‘mga teng bo‘lgan 44 ta manzilli dastur ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etildi [3].

Mazkur tashabbuslarning bosh maqsadi viloyatga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimini ko‘paytirish, yangi turistik yo‘nalishlar va xizmatlarni joriy etish orqali xalqaro bozorda tanitish, xorijiy turistik kompaniyalar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, xizmat ko‘rsatish sifatini yanada yuksaltirish hamda yirik xalqaro tadbirlarni o‘tkazish uchun hududning infrastrukturaviy salohiyatini oshirishdan iboratdir.

Shu nuqtayi nazardan, Samarqand viloyati hokimligining turizm sohasiga mas‘ul rahbarlari, Turizmni rivojlantirish departamenti xodimlari hamda mahalliy turistik tashkilotlar vakillari muntazam ravishda xorijiy davlatlarda o‘tkazilayotgan xalqaro ko‘rgazma va

yarmarkalarda faol ishtirok etib kelmoqda. Bu esa hududning turizm brendi va salohiyatini keng miqyosda targ'ib etishga xizmat qilmoqda.

2019-yilda Samarqand viloyatining turizm salohiyatini targ'ib qilish maqsadida bir qator yirik xalqaro turistik ko'rgazmalarda taqdimotlar tashkil etildi. Xususan, Ispaniyada bo'lib o'tgan "FITUR 2019", Turkiyadagi "EMITT 2019", Rossiyadagi "MITT 2019", Germaniyadagi "ITB BERLIN 2019", Latviyadagi "Balttour 2019", shuningdek, Birlashgan Arab Amirliklarida o'tkazilgan "Arabian Travel Market" xalqaro ko'rgazmalarida Samarqandning turistik imkoniyatlari haqida keng qamrovli ma'lumotlar taqdim etildi [4].

Bundan tashqari, bir qator xorijiy mamlakatlarning telekanallari ijodiy guruhlar Samarqand shahriga tashrif buyurib, maxsus dasturlar suratga olish orqali shaharni xalqaro auditoriyaga kengroq tanitishga hissa qo'shdilar.

2021-yilda Samarqand viloyatining turizm salohiyatini xalqaro miqyosda targ'ib etish hamda hududning "brend" sifatida tanilish darajasini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi tashabbusi bilan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, xorijiy mamlakatlardan jurnalistlar va blogerlardan iborat 82 ta media-guruhning Samarqandga tashrifi tashkil etildi. Ularning faoliyati natijasida viloyatning turizm imkoniyatlari chet elning gazeta va jurnallarida, telekanallarda, internet nashrlarda hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritildi.

Shuningdek, Rossiyaning "Россия-24", "НТВ", "Моя Планета", "Mir" telekanallari, Yaponiyaning "NHK TV", Fransiyaning "Step by Step" va "Chasse et Peche TV" kabi nufuzli ommaviy axborot vositalari Samarqand haqida maxsus ko'rsatuvlar va reportajlar tayyorlab, shaharni xalqaro maydonda keng tanitishga xizmat qildi.

So'nggi yillarda Samarqand viloyatida sayyohlarning faqat shahar markazidagina emas, balki uning atroflarida ham sayohat qilish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan amaliy ishlar amalga oshirildi. Xususan, shahar tashqarisida 16 ta yangi turistik yo'nalishlar tashkil etilishi orqali tashrif buyuruvchilarga qo'shimcha tanlov imkoniyati yaratildi. Buning natijasida xorijiy sayyohlarning hududda qolish davomiyligi o'rtacha 1,8 kundan 2,0 kungacha oshirildi.

Bundan tashqari, ichki turizmni qo'llab-quvvatlash va viloyatning turistik salohiyatini yanada kengroq targ'ib etish maqsadida muntazam ravishda maxsus media-loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, "O'zbekiston 24" telekanali, Samarqand teleradiokompaniyasi, "Dunyo bo'ylab", "O'zbekiston", "Sevimli" va boshqa ommaviy axborot vositalarida 100 dan ortiq maxsus teleko'rsatuvlar efirga uzatilib, viloyatning turizm imkoniyatlari ommaga keng tanitildi.

2023-yilda O'zbekiston tarixida ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkiloti oilasiga mansub Butunjahon Turizm Tashkilotining 25-Assambleyasi qadimiy Samarqand shahrida o'tkazildi.

Ushbu yirik xalqaro tadbir mamlakatning turizm diplomatiyasidagi muhim yutuqlaridan biri sifatida tarixda o‘rin oldi.

Mazkur davrda viloyatga jami 2 million nafardan ortiq mahalliy va xorijiy sayyoh tashrif buyurdi, natijada turizm xizmatlari eksporti hajmi 405 milliard so‘mga yetdi. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasini rivojlantirish va yangi xizmat turlarini joriy etish natijasida sohada 750 ta yangi ish o‘rni yaratilgani Samarqand viloyati iqtisodiy-ijtimoiy hayotida muhim voqea bo‘ldi [5].

Xulosa. O‘zbekiston mustaqillikka erishish arafasida ijtimoiy-madaniy muassasalarda jiddiy muammolar mavjud edi. Ularning faoliyati davr va milliy taraqqiyot talablariga javob bermas, aholining ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari esa yetarli darajada emasdi. Mazkur muammolar ta’lim tizimida, jumladan, Samarqand shahri maktab va o‘quv muassasalari faoliyatida ham sezilarli darajada namoyon bo‘lgan.

Mustaqillik yillarida esa sobiq tuzumdan meros bo‘lib qolgan ushbu ijtimoiy-madaniy infratuzilma tubdan isloh qilindi. Qonunlar, davlat dasturlari hamda hukumat qaror va farmonlari ijrosi jarayonida keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Xususan, ta’lim va madaniyat muassasalarida kapital ta’mir, moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash va yangi shart-sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratildi. Natijada, mazkur sohalar milliy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylana boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi joriy arxiv materiallari.
2. T.Evadullayev. Samarqandda ziyorat turizmini rivojlanishda muqaddas qadamjolarining o‘rni. // “O‘zbekistonni top 10 turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari, barqaror rivojlanish imkoniyatlari” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami.. -Buxoro 2020. -B.81.
3. Norbutayeva, G. (2024). Samarqandning "jahon madaniy turizm poytaxti" sifatida e’tirof etilishi. *Modern Science and Research*, 3(12), 298–304. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/54321>
4. Rahimova Nilufar Aminovna, Mansurova Nargiza Shamsidinovna, Raximov Zarrux Aminovich “Samarqand viloyati turistik salohiyatining tahlili” // *Экономика и финансы (Узбекистан)*. 2022. №6 (154). 10.12.2024).
5. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasining joriy arxivi. Qo‘mitaning 2023-yildagi hisobot materiallari.